

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 71 (1670), 2026-yil 11-aprel, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



BUXORONING YANGI QIYOFASI XALQ MANFAATI YO‘LIDAGI BUNYODKORLIK TASHABBUSLARIDA NAMOYON BO‘LMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 10-aprel kuni Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va istiqbolli loyihalar bilan tanishdi.



Davlatimiz rahbari Buxoro shahriga tashrifi davomida dastlab Buxoro viloyatining yangi ma‘muriy markazida amalga oshirilayotgan buniyodkorlik ishlarini ko‘zdan kechirdi.

Majmua Qashqadaryo viloyati Ko‘kdala tumanida sinovdan o‘tgan boshqaruv organlarini integratsiyalash tajribasining

davomidir. U yerda 38 ta davlat idorasi bir joyda jamlanib, aholi uchun katta qulaylik yaratilgan. Avvallari turli yumush bilan olis masofalarni bosib, boshqa tuman idoralari qatnagan fuqarolar barcha xizmatlarni o‘ziga yaqin joyda olish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Prezidentimiz o‘tgan yili Ko‘kdalaga

tashrifi chog‘ida bunday yondashuv barcha tumanlar uchun namuna ekanini ta‘kidlagan edi. O‘tgan davrda boshqa hududlarda ham ushbu tajriba asosida buniyodkorlik ishlari boshlangan.

Xususan, Buxorodagi ma‘muriy markaz 14 gektar maydonni egallagan bo‘lib, birinchi

bosqichda viloyat va shahar hokimliklari, viloyat prokuratura hamda ichki ishlar boshqarmalari kabi davlat idoralari bir hududda jamlangan. Bu, eng avvalo, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining o‘zaro muvofiqlashuvini yaxshilash, murojaatlar bilan ishlarni tezlashtirish va davlat xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Majmua faqat ma‘muriy binolardan iborat emas. Bu yerda fuqarolarning mazmunli hordiq chiqarishi uchun xiyobonlar, favvoralar va yashil hududlar barpo etilmoqda.

Prezidentimiz viloyat hokimligining yangi binosidagi buniyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Odamlarga qulaylik yaratish, fuqarolar turli masalalar yuzasidan har xil maznillarga borib yurmasdan, zarur xizmatlarni bir hududning o‘zida olishini ta‘minlash maqsadida davlat idoralarni yagona ma‘muriy markazlarga birlashtirish ishlarini izchil davom ettirish zarurligi ta‘kidlandi.

Shu yerning o‘zida davlatimiz rahbariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholiga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlar taqdimot qilindi.

Jumladan, banklar tomonidan sun‘iy intellektidan foydalangan holda hudud va mahallalar kesimida tahlil o‘tkazilib, Buxoro tumani misolida o‘shish nuqtalari aniqlangan haqida axborot berildi. Bu tahlillar yer, suv, mehnat resurslari, bozor talabi, infratuzilma va mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini o‘zaro bog‘liq holda baholash imkonini berdi. Natijada Buxoro tumanida agrobiznes, turizm, sanoat va yo‘l bo‘yi xizmatlari eng istiqbolli yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

Xususan, 15 ming gektar yerni o‘zlashtirish, 500 gektar yangi uzumzorlar barpo etish, ekoturizmni kengaytirish, shuningdek, neft-gaz, kimyo, qurilish va oziq-ovqat

tarmoqlarida yangi loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatib o‘tildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, 2026-2031-yillarda ushbu yo‘nalishlarda 7,4 trillion so‘mlik loyihalarni amalga oshirish va 15 mingta yangi ish o‘rni yaratish mumkin.

Shuningdek, tumandagi 36 ta mahallani 6 ta drayver yo‘nalishi — uzumchilik, mevasabzavotchilik, chorvachilik, bog‘dorchilik, turizm va servisga ixtisoslashtirish mumkinligi qayd etildi. Loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni jadallashtirish maqsadida mahallalar uchun resurs bazasini shakllantirish, biznes-rejalarni avtomatik tayyorlash, mablag‘lar harakati va natijalarni real vaqt rejimida nazorat qilish bo‘yicha sun‘iy intellekt asosidagi yechimlar ishlab chiqilmoqda.

Prezidentimiz sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanib, har bir hududning salohiyatini ochish, loyihalarni natijaga qaratilgan holda shakllantirish va aholi bandligi hamda daromadini oshirishga xizmat qiladigan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash muhimligini ta‘kidladi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Buxoroning tarixiy qismiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari shahar aholisi va mehmonlarini samimiy qutladi. Buxoroning boy madaniy merosini, tarixiy qiyofasini asrash va uni yanada obod etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida axborot berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Buxoroga safari chog‘ida shaharning yangi aeroportini barpo etish loyihasi bilan tanishdi.

Mamlakatimizda transport infratuzilmasi izchil rivojlantirilmoqda. Yangi yo‘l va ko‘priklar qurilib, yo‘lovchilarga qulayliklar oshirilmoqda. Qayd etish kerakki, davlatimiz

rahbari 2024-yilda Buxoro viloyatiga tashrifi davomida hududning turizm salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida Buxoroning yangi xalqaro aeroportini barpo etish bo‘yicha muhim topshiriq bergan edi.

Ushbu transport inshooti hamda unga tutash infratuzilmani barpo etish uchun shahar tashqarisidan jami 370 gektar yer maydoni ajratilgan. Loyiha doirasida aeroportga olib boruvchi avtomobil yo‘li ham qurilmoqda. Uning umumiy uzunligi 23,8 kilometrni tashkil etib, shundan 2,7 kilometri mutlaqo yangi yo‘l, 21,1 kilometri esa rekonstruksiya qilinadi. Shuningdek, yo‘l bo‘yida 2 ta yo‘l o‘tkazgich, 9 ta yer osti piyodalar o‘tish joyi va 8 ta ko‘priklar barpo etilishi nazarda tutilgan.

Loyihaga ko‘ra, yangi aeroportda uzunligi 3,3 kilometr bo‘lgan, barcha turdagi havo kemalarini qabul qilish imkoniga ega uchish-qo‘nish yo‘lagi, shuningdek, soatiga 1200 nafar yo‘lovchiga yuqori darajada xizmat ko‘rsatish quvvatiga ega aerovokzal majmuasi quriladi.

— Biz Buxoro viloyati aholisi, shuningdek, mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun zamonaviy va qulay xizmat ko‘rsatadigan aeroport barpo etishni maqsad qilganmiz. Shunday ekan, ushbu aeroport jahon standartlari talablariga to‘liq mos bo‘lishi shart, — dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbariga Buxoro viloyatining iqtisodiy, investitsiyaviy va turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan boshqa qurilish loyihalari haqida ham axborot berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Buxoroga tashrifi davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Zarif KOMILOV,
O‘ZA muxbirlari

QOZOG‘ISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN O‘ZBEKISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev 11-aprel kuni amaliy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ladi.

Tashrif doirasida Buxoroda oliy darajadagi muzokaralar bo‘lib o‘tadi. Unda O‘zbekiston — Qozog‘iston do‘stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Siyosiy muloqotni, parlamentlararo, hukumatlararo va hududlararo aloqalarni mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratiladi.

Shuningdek, yetakchilar tovar ayirboshlash hajmini oshirish, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, transport, energetika, suv va ekologiya sohalarida

qo‘shma loyiha va dasturlarni ilgari surish hamda madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirish masalalarini muhokama qiladilar.

Xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi masalalar yuzasidan ham fikr almashiladi.

Bigalikda tarixiy obidalarini ziyorat qilish, sanoat korxonalarini faoliyati va mahsulotlar ko‘rgazmasi bilan tanishish rejalashtirilgan.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON – QOZOG‘ISTON: ISHONCH VA UMUMIY MANFAATLAR ASOSIDAGI ITTIFOQCHILIK



11-aprel kuni Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev amaliy tashrif bilan O‘zbekistonda bo‘ladi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi munosabatlarning hozirgi bosqichi misli ko‘rilmagan sur‘at va har tomonlama rivojlanayotgan strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilgani bilan tavsiflanadi. Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning

2026-yil 11-aprel kuni oliy darajadagi norasmiy sammit formatida O‘zbekistonga amaliy tashrifi ikki tomonlama aloqalar taqvimidagi muhim voqea bo‘ladi.

Davomi 2-beta

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

IJRO VA TARTIB — ICHKI MADANIYAT, MA‘NAVIY MAS‘ULIYAT

Buyuk davlatlarning taraqqiyoti hamda bugungi umumbashariy tafakkur tamoyillari g‘oyalar bilan birga qat‘iy intizom asosida qurilgan. Sohibqiron bobomiz Amir Temur saltanatida ham temirdek mustahkam tartib va aniq ijro ustuvor edi. “Tuzuklar” asarida bobomiz bunday qat‘iy talabni qo‘yadi: “... Sakkizinchi, qaroringa amal qildim va har ishga qaror qilsam, ul ishni himmatim oldiga tutdim va to ul ishni bitirguncha undin ilik ko‘tarmadim”. Bu oltin qoida o‘lmas bir haqiqatni anglatadi: hatto eng ezgu, eng kuchli g‘oya ham ijrosi bo‘lmasa, xalq orasida qadrini yo‘qotadi. Balandparvoz so‘zlar va qog‘ozdagi quruq hisobotlarning davri o‘tdi.

Mutaxassislarning minbarlardagi jarangdor nutqlaridan ko‘ra, ularning o‘z ishiga mas‘uliyati, madaniyati va har qanday sharoitda o‘zgaraydigan intizomiy jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi kuchga aylanadi. Demak, intizom faqat ma‘muriy talab emas, balki ma‘naviy pozitsiya hamdir.



Ilg‘or mamlakatlar tajribasiga nazar

Taraqqiy etgan davlatlar amaliyotida samaradorlik asosi intizom ekaniga ko‘p misol keltirish mumkin. Masalan, Yaponiyaning kaizen (doimiy takomillashuv) falsafasi yoki Malayziyada davlat xizmatchilari uchun joriy etilgan

qat‘iy axloq va ijro standartlarida tizimlilik, vaqt qadriga yetishni ko‘ramiz. Yaponiyada kaizen faqatgina korxonalarda emas, davlat xizmatlarida ham qo‘llanadi. U yerda davlat idoralarda qog‘ozbozlik va ortiqcha harakatlarni qisqartirish uchun qat‘iy 5S (saralash, tartibga solish, tozalash, standartlashtirish, intizom) tizimi amal qiladi. Aytaylik, xodim biror hujjatni izlashga 30 soniyadan ortiq

vaqt sarflamasligi zarur. Chunki “muda” (isrof) tushunchasi moddiy resurslar bilan birga vaqtga nisbatan ham qo‘llanadi. Davlat xizmatlarining fuqaroni kutirishi eng og‘ir “muda” (vaqt isrofi)dir. Shu sababli Yaponiyada ko‘p xizmatlar inson omilisi, zamonaviy texnologiyalar orqali soniyalarda amalga oshiriladi.

Davomi 3-beta

O‘ZBEKISTON VA BUTUNJAHON TURIZM TASHKILOTI O‘RTASIDAGI ALOQALAR JADAL SUR‘ATDA RIVOJLANMOQDA

“Dunyo” AA muxbirining savollariga BMTning Butunjahon turizm tashkiloti bosh kotibi Shayxa Nosir an-Nuvays javob berdi.

— Siz BMTning Butunjahon turizm tashkiloti bosh kotibligiga tayinlangan birinchi ayol va BAAdan chiqqan ilk vakilsiz. Bu siz uchun va jahon turizmi uchun nimani anglatadi?

— Ushbu lahzani juda yaxshi eslayman. Ar-Riyodda — Bosh Assambleyada o‘tirganimda nomim e‘lon qilindi. Bir zumda hamma narsa to‘xtab qolgandek bo‘ldi. Keyin esa mazkur lavozimning qanchalik katta mas‘uliyati ekanini angladim. Bu juda ta‘sirli hissiyot edi.



Davomi 2-beta



O'ZBEKISTON - QOZOG'ISTON: ISHONCH VA UMUMIY MANFAATLAR ASOSIDAGI ITTIFOQCHILIK

Boshlanishi 1-betda

Ushbu tashrif erishilgan yutuqlarni mustahkamlash hamda o'zgaruvchan mintaqaviy va global kun tartibi sharoitida hamkorlikning yangi ufoqlarini belgilashga qaratilgan. Ikki davlatning yaqinlashuviga nafaqat geografik joylashuv, balki xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalariga yondashuvlarning umumiylik ham asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa Markaziy Osiyoning ikki yirik davlati ittifoqini butun mintaqadagi barqarorlikning asosiy omiliga aylantiradi.

kabi ko'p tomonlama sammitlarda ishtirok etish doirasida faol rivojlanmoqda. Bunday ko'p bosqichli kommunikatsiyalar tizimi ikki qardosh mamlakat va xalqning strategik manfaatlarini mustahkamlaydi.

So'nggi yillarda sifat jihatidan yangi mazmun kasb etgan parlamentlararo hamkorlik siyosiy muloqotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. 2017-yilda ikki mamlakat parlamentari yuqori palatalari o'rtasida hamda 2018-yilda O'zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Qozog'iston parlamenti Majlisi o'rtasida imzolangan hamkorlik to'g'risidagi memorandumlar buning uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. 2022-yilda

hududlari darajasida amaliy masalalarni tekzor hal etish imkonini beradi va joylarda aniq investitsiya loyihalarini amalga oshirishni rag'batlantiradi.

Iqtisodiy hamkorlik global beqarorlik sharoitida ham barqaror o'sishni namoyish etib, ikki tomonlama munosabatlarning lokomotivi bo'lib qolmoqda. 2025-yil yakunlariga ko'ra, mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 4,9 milliard dollarga yetdi, bu o'tgan yildagiga nisbatan 12 foiz ko'pdir. Ijroiy dinamik 2026-yilda ham saqlanib qolmoqda — birgina yanvar oyida o'zaro savdo hajmi 31 foiz o'sib, 414 million dollarni tashkil etdi.

Hamkorlikning mustahkam poydevori investitsiyaviy faollik ko'lamini bilan bog'liq. Bugungi kunda O'zbekistonda Qozog'iston kapitali ishtirokidagi 1200 dan ortiq korxonada, Qozog'istonda esa o'zbek kapitali ishtirokidagi 4934 yuridik shaxs faoliyat yuritmoqda. Ushbu jarayonlarni sifatli qo'llab-quvvatlash uchun 2022-yilda Bosh vazirlar o'rinbosarlari darajasida qo'shma loyihalarni monitoring qilish va import o'mini bosish bo'yicha maxsus hukumatlararo ishchi guruh tuzildi.

O'zbekiston va Qozog'istonning madaniy-gumanitar sohadagi hamkorligi 1994-yil 10-yanvardagi hukumatlararo bitim asosida amalga oshirilmoqda. Bugungi kunga qadar ikki mamlakat o'rtasida madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan ko'plab tadbirlar — ko'rgazmalar, festivallar, gastrollar va forumlar tashkil etildi.

Bu munosabatlarga ma'naviy yaqinlik va ko'p asrlilik madaniy an'analar, O'zbekiston va Qozog'istonda istiqomat qilayotgan qozoq va o'zbek diasporasi vakillari muhim hissa qo'shmoqda. O'zbekistonda 803 mingdan ortiq etnik qozoq, Qozog'istonda esa 624 mingdan ortiq o'zbek istiqomat qiladi. Bu "insoniy ko'priq" voqealarga boy almashinuvlarning muhim omilidir.

2023-2025-yillarda Samarqand va Buxoroda Qozog'iston madaniyati kunlari, shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatrlari Ostonada va Olmotaodagi "Lazgi" spektakli bilan keng ko'lamli gastrollari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. San'at, ilm-fan va turizm sohalariidagi aloqalarni rivojlantirish nafaqat milliy madaniyatlarni boyitadi, balki ikki qardosh xalqning o'zaro hurmati va samimiy do'stligiga yanada ishonchli asos yaratadi.

Bugungi kunda Toshkent va Ostonani mintaqaviy xavfsizlikning bo'linmasligini chuqur anglash va dolzarb muammolarga yondashuvlarning g'oyat o'xshashligi birlashtirib turadi. Buxoroda bo'lib o'tadigan oliy darajadagi O'zbekiston — Qozog'iston norasmiy sammiti, shubhasiz, global notinchlik hukm surayotgan murakkab davrda "soatlarni to'g'rilash" va ikki tomonlama munosabatlarni amoviy barqarorligini ta'minlash, qo'shma loyihalarga yangi sur'at bag'ishlash, Markaziy Osiyoni barqarorlik, farovonlik va uzoq muddatli yaxshi qo'shinchilik makoniga aylantirish imkonini beradi.

"Dunyo" AA

O'ZBEKISTON VA BUTUNJAHON TURIZM TASHKILOTI O'RTASIDAGI ALOQALAR JADAL SUR'ATDA RIVOJLANMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Birinchi ayol rahbar bo'lganim bu voqeaning ahamiyatini oshiradi. Lekin bu faqat mening yutug'im emas, mendan oldingi ayollarning mehnati natijasi. Ular jamiyatda muhim o'rin tutgan, hatto har doim yetarlicha e'tirof etilmagan bo'lsa ham.

Men uchun bu nafaqat shaxsiy yutuq, balki boshqalar uchun ham yo'l ochish mas'uliyatidir.

Yoshligimdan sayohat qilish va turli madaniyatlarni ko'rish dunyoqarashimni shakllantirgan. Bu menga ishim faqat o'zim uchun emas, balki boshqalar uchun ham foydali bo'lishi kerakligini o'rgatgan. Turizm ham aynan shunday: odamlarni o'zaro bog'laydi va imkoniyat yaratadi.

— Bugun turizm sohasida sizga nima ilhom beradi?
— Meni eng ko'p ilhomlantiradigan omil — turizmning insonlarga beradigan imkoniyatlari.

Ko'pchilik sayyohlarni dam olish, plyaj yoki sayohat deb o'ylaydi. Bu ham to'g'ri, lekin turizm bundan ancha keng tushuncha. U ish o'rinlari ochadi, kichik biznesni qo'llab-quvvatlaydi, madaniyatni saqlaydi va jamoalarni rivojlantiradi, ayniqsa, boshqa sohalarda yetib bormagan joylarda.

Turizm inson hayotining ko'p jihatiga ta'sir qiladi. Bugungi bo'lingan dunyoda esa u odamlarni birlashtirishga qodir kuchli vosita bo'lib qolmoqda.

— Yaqin yillardagi asosiy ustuvor vazifalaringiz nimalardan iborat?
— Asosiy maqsadim turizmning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligini oshirishdir.

Buning uchun qarorlar qabul qilishda ma'lumotlar va boshqaruvni yaxshilash, davlatlar, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, sohada ishlovchilar va tizimlarni rivojlantirish muhim. Eng asosiy, turizm odamlar va jamiyatlar uchun haqiqatan ham foydali bo'lishi kerak.

— Kelajakda turizm qanday rivojlanadi deb o'ylaysiz?
— Turizm eng asosiy omil — ishonch. Agar odamlar o'zini xavfsiz his qilsa, sayohatga chiqadi. Aks holda, ikkilanadi. Shuning uchun bunday kodeks umumiy standartlar yaratish, xavfsizlikni kuchaytirish, inqirozlariga puxta tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi.

"Dunyo" AA
Madrid shahri



Zamonaviy diplomatik munosabatlarga 1992-yil 23-noyabrda asos solingan bo'lib, o'tgan o'n yillar davomida tomonlar 304 hujjatdan iborat salmoqli shartnomaviy-huquqiy bazani shakllantirgan. Bu ro'yxatda 2021-yildagi deklaratsiya va 2022-yildagi Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma, shuningdek, Davlat chegarasini demarkatsiya qilish to'g'risidagi tarixiy shartnoma alohida o'rin tutadi. Oliy darajadagi ikki tomonlama siyosiy aloqalar jadalligi davlat tashriflarining muntazamligi bilan yaqqol tasdiqlanadi: 2017-yildan boshlab mamlakat yetakchilari har yili Ostonada va Toshkentga keng ko'lamli tashriflar almashadilar.

Rasmiy protokol tadbirlaridan tashqari davlat rahbarlari o'rtasida shaxsiy ishonchni mustahkamlashga xizmat qiluvchi formatlar amaliyotga mustahkam kirib bordi. 2023-yildan buyon Chimgent, Xiva va Olmotaoda uchta norasmiy uchrashuv o'tkazildi, bu yetakchilarga eng nozik masalalarni ishonchli muhitda muhokama qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, amaliy tashriflar formati, jumladan, 2025-yil aprel oyida Samarqanddagi uchrashuv yoki O'zbekiston Prezidentining o'sha yilning may va iyun oylarida Ostonaga tashrif

qonunchilikni uyg'unlashtirish va tajriba almashish uchun samarali maydonga aylangan Parlamentlararo hamkorlik kengashi tashkil etilishi muhim qadam bo'ldi.

Munosabatlarning tizimli xususiyati qo'shma institutlarning rivojlangan tarmog'i faoliyati bilan mustahkamlanadi. Ularning eng asosiy 1997-yildan buyon faoliyat yuritayotgan Ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha hukumatlararo qo'shma komissiyadir. 2019-yildan boshlab ushbu organing maqomi oshirildi — endi uning yig'ilishlari ikki mamlakat bosh vazirlari raisligida o'tkaziladi. Komissiyaning 2025-yil 22-23-oktabr kunlari Xiva shahrida bo'lib o'tgan 22-yig'ilishi iqtisodiy rejalarni muvofiqlashtirish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirishda muhim bosqich bo'ldi.

Hukumatlar bilan birga Hududlararo hamkorlik forumi doirasida hududlar o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri g'orizontal aloqalar faol mustahkamlanmoqda. 2024-yil oktabr oyida Samarqandda to'rtinchi shunday forumning muvaffaqiyatli o'tkazilishi 2026-yilda Qozog'istonda o'tkazilishi rejalashtirilgan beshinchi uchrashuvga tayyorgarlik ko'rish uchun zamin yaratadi. Ushbu mexanizmlar ikki mamlakat

SPORT - MILLAT SALOMATLIGI, MAMLAKAT QUDRATI NAMOYISHI

Prezidentimiz raisligida jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish, aholini ommaviy sportga keng jalb etish, seleksiya va tayyorgarlik tizimini takomillashtirish masalalari yuzasidan yaqinda bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishi, hech mubolag'asiz, mamlakatimiz ijtimoiy siyosatida yangi sahifa ochdi. Bu yig'ilish sportni millat salomatligi, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy intizom, vatanparvarlik va davlat nufuzining uzviy qismi sifatida ko'rish zarurligini yana bir bor qat'iy kun tartibiga olib chiqdi.



Dilshodbek RUSTAMOV,
Andijon davlat chet tillari
instituti rektori

Yig'ilishning eng muhim xulosalaridan biri shuki, sportga endi faqat ommaviylik emas, balki real ijtimoiy samarasi nuqtayi nazaridan yondashiladi. Ya'ni sport bilan shug'ullanuvchilar sonining o'sishi yetarli maqsad emas. Asosiy mezon — aholining sog'lig'i yaxshilanayotimi, xastaliklari kamayayotimi, jismoniy sustlik ko'rsatkichi pasayayotimi degan savollarga javob topishga borib taqaladi. Bu, aslida, juda katta metodologik tuzilishdir. Chunki uzoq yillar davomida ko'plab tizimlarda ko'rsatkich uchun ishlab kayfiyati kuzatilgan bo'lsa, endi samara uchun ishlab davri boshlanmoqda.

Mahalla darajasida "salomatlik balansi"ni shakllantirish, "sog'lom hayot volontyorlari" korpusini yaratish, namunali mahallalarni rag'batlantirish, trenerlarga yuqori ustamlar

belgilash haqidagi topshiriqlar sportni ma'muriy tadbir emas, real ijtimoiy harakatga aylantirishga qaratilgan. Bu yondashuvning kuchi shundaki, u sportni stadion yoki zaldan kengroq miqyosga olib chiqadi, kundalik turmush madaniyatiga aylantiradi.

Videoselektorda oliy ta'lim tizimiga alohida urg'u berildi. Chunki bugun universitet va institutlar faqat bilim beruvchi maskan bo'lib qolmasligi, balki sog'lom fikrlovchi, jismonan baqvvat, ijtimoiy faol va maqsadli yoshlarni tarbiyalovchi muhitga aylinishi lozim.

Yig'ilishda ayrim oliygohlarda sport klublari nomigagina ishlayotgani, talabalar jismoniy normativlarni topshirishda qoniqarsiz natija ko'rsatayotgani tanqid qilindi. Bu tanqid, avvalo, sportni o'quv jarayonining "qo'shimcha" qismi deb qarashdan voz kechish kerakligini ko'rsatadi. Aslida, talabani jismoniy tayyorgarligi uning ruhiy barqarorligi, mehnat unumdorligi, tashabbuskorligi va hatto akademik faolligi bilan ham chambarchas bog'liq.

Shu ma'noda, Prezidentimizning barcha oliygoh rektorlariga bir yillik sport rejasini ishlab chiqish topshirig'ini bergani juda muhim. Bu topshiriq qog'ozbozlik uchun emas, oliy ta'lim muassasalari ichki hayotini yangicha mezonlar asosida qayta qurish uchun berildi. Bugun har bir rektor sportni faqat jismoniy tarbiya kafedrasiga yoki alohida klub muammosi deb emas, butun ta'lim muassasasining rivojlanish strategiyasi deb ko'rish kerak.

Sport sohasida Termiz davlat universiteti tajribasi misol qilib keltirildi. Demak, istak, tashabbus va tizim bo'lsa, oliygoh talabalarini keng qamrab olish, klublar faoliyatini jonlantirish va salmoqli natijaga erishish mumkin. Endi bu tajriba barcha oliy ta'lim muassasalari uchun amaliy dasturga aylantirish zarur.



Nuqtayi nazar

Mazkur yig'ilishdan kelib chiqib, Andijon davlat chet tillar institutida ham aniq vazifalar belgilab olindi. Institut jamoasiga yo'llangan murojaatnomada bu boradagi ustuvor yo'nalishlar ochiq va qat'iy ifodalandi.

Birinchi, OTMda har bir talabani jismoniy holatini tizimli monitoring qilish va "salomatlik balansi" asosida individual sog'lomlashtirish yondashuvini joriy etish ko'zda tutilmoqda. Bu yondashuv talabani jismoniy holatini umumiy chiqirqlar bilan emas, aniq holat va ehtiyoj asosida yaxshilashga xizmat qiladi.

Ikkinchi, zamonaviy sport madaniyatini shakllantirish maqsadida ochiq va yopiq

maydonlarda kross-fit to'garaklarini yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda. Bu oddiy mashg'ulot emas, balki yoshlarning chidamliligi, o'zini yengish qobiliyati va iroda tarbiyasini kuchaytiradigan tizim bo'ladi.

Uchinchi, sportni daromad va kasb manbai sifatida ko'rishga qaratilgan yangi model institutimiz uchun alohida ahamiyatga ega. Sportda yutuqqa erishgan talabalarni mahallalardagi to'garaklarga murabbiy sifatida birlashtirish, ularga murabbiylik va hakamlik sertifikatlarini berish, tushumning muayyan qismini bevosita talabani o'zida qoldirish yoshlar tashabbusini iqtisodiy rag'bat bilan uyg'unlashtiradigan muloqat yangi qarashdir.

Bunday tizim talabani sportga munosabatini ham, o'z mehnatiga mas'uliyatini ham kuchaytiradi.

To'rtinchidan, institutda "Sog'lom hayot volontyorlari" korpusini shakllantirish orqali sport va sog'lom turmush g'oyalarini mahallalarga olib kirish rejalashtirilmoqda. Bu tashabbus oliy ta'lim muassasasining faqat ichki hayoti bilan cheklanmay, ijtimoiy mas'uliyati ko'lamini ham kengaytiradi.

Beshinchidan, biz sport va ilm integratsiyasiga ham alohida yondashmoqdamiz. Xalqaro sport tibbiyoti, farmakologiya, fiziologiya, diyetologiya va to'g'ri ovqatlanishga oid ilg'or adabiyotlarni o'rganish, tarjima qilish hamda amaliyotga taklif etish bo'yicha maxsus lingvistik guruhlar faoliyatini yo'lga qo'yishimiz mumkin. Bu sportni nafaqat jismoniy, balki ilmiy-intellektual rivojlanish omili sifatida ham ko'rishdir.

Bugungi vaziyat sportga faqat alohida soha yoki professional maydon sifatida qarash davri ortda qolganini ko'rsatmoqda. Endi sport o'lad, mahallada, maktabda, oliygohda, mehnat jamoasida va butun jamiyat hayotida umumiy madaniyat darajasiga ko'tarilishi kerak. Haftada bir kun sport kuni etib belgilanishi, davlat idoralari va tashkilotlarda xodimlar uchun sport mashg'ulotlari yo'lga qo'yilishi, hatto xususiy sektorga ham imtiyozlar berilishi aynan mana shu umumxalq harakati rivoji uchun xizmat qiladi.

Sportga qiziqadigan, sog'lom turmushni qadriyat deb biladigan, o'z irodasini tarbiyalagan jamiyat ertasini mustahkam qura oladigan jamiyatdir. Shu ma'noda, sport faqat chempion tayyorlash emas, balki millatning ichki qudratini uyg'otish masalasi.

Andijon davlat chet tillar instituti jamoasi bu vazifalarni yuksak mas'uliyat bilan qabul qiladi. Biz uchun bugungi vazifa aniq: xorijiy tilni biladigan, dunyo bilan raqobatlasha oladigan, ayni paytda jismonan chiniquqan, sog'lom, intizomli va yuksak maqsadli avlodni tarbiyalash. Chunki til bilish tafakkur ufqini kengaytirsa, sport iroda va hayot quvvatini mustahkamlaydi. Yangi O'zbekiston esa aynan ana shunday har tomonlama barkamol yoshlar bilan yuksaladi.

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

IJRO VA TARTIB — ICHKI MADANIYAT, MA'NAVIY MAS'ULIYAT



Otobek HASANOV, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari

Boshlanishi 1-betda

Yaponiyada intizom — jamoaviy madaniyat, Malayziyada — jadal o'sish strategiyasi bo'lsa, Germaniyada qonun va jarayonning mutlaq ustuvorligidir. Germaniyada davlat xizmatchilari "beamte" deb ataluvchi huquqiy maqomga ega. Bu maqomning umrbodligi va davlatga sadoqati konstitutsiyaning 33-moddasi 4- va 5-bandlarida mustahkamlab qo'yilgan. Davlat xizmatchilari davlatga va konstitutsiyaga sadoqati haqida qasamyod qiladi. Evaziga davlat ularni umrbod ish bilan ta'minlaydi. Faqat qoidabuzarlik yoki korruptsiya ularni pensiya va ijtimoiy himoyadan mahrum qiladi. Mamlakatda e'tibor berilgan, aniqlikka e'tibor qaratadi. Davlat idorasida uchrashuv soat 09:00 da belgilangan bo'lsa, hech kimning bir daqiqa kechikishga yoki barvaqt kelishga haqqi yo'q. Hech bir davlat xizmatchisi qoidalarni o'zicha talqin qilmaydi.

Tilga olingan mazkur uch davlat tajribasida bitta o'xshashlikni ilg'ash mumkin: u yerda tizim insonning kayfiyati yoki shaxsiy xohishiga qarab ishlaydi. Qat'iy axloqiy qoidalar va vaqt menejmenti davlat apparatini his-tuyg'ulardan xoli, faqat fuqaro va jamiyat farovonligiga xizmat qiladigan mexanizmga aylantirgan.

Raqamli intizom arxitekturasini


Jahon tajribasi yana shuni ko'rsatadiki, davlat boshqaruvida qat'iy intizom va taym-menejment o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi, albatta. Buning uchun kuchli huquqiy baza, aniq reglament va ijroni nazorat qiluvchi zamonaviy mexanizm zarur. Har qanday islohotning hayotiylikni ta'minlash uning qog'ozdan amaliyotga qanchalik tez va sifati ko'chishi bilan o'chanadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda ham davlat idoralari faoliyatini soat mexanizmi kabi ishlagan yo'naltirish, qog'ozbozlikni qisqartirish, xizmatchilarning ijro madaniyatini yangi bosqichga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu borada Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2025-yil 25-iyuldagi "Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari huquqiy zamin yaratmoqda. Qolaversa, davlatimiz rahbarining 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini mustahkamlash, idora va tashkilotlar rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirishda dasturlamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari ijrosini nazorat qilishning yangi mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi qaroriga asosan hukumat qarorlari ijrosini nazorat qilishning yangi tartibi joriy etildi. Mazkur hujjat normativ-huquqiy hujjatlarni puxta ishlab chiqish va qabul qilishning ta'sirchan amaliyotini shakllantirish, ularni keng jamoatchilik hamda aholiga tezkor yetkazishda yagona tizim joriy etilishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan huquqiy me'yorlar va "Ijro.gov.uz" tizimining samaradorligini Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatida ko'rishimiz mumkin. Idorada xorij tajribasi asosida tizimlilik, taym-menejment va inson omilidan xoli qat'iy nazorat mexanizmi ishlayotganiga guvoh bo'lamiz. Tizimning naqadar tug'iz va aniq algoritim asosida ishlagani 2025-yilgi sarhisoblar ham ko'rsatib turibdi.

Xususan, yil davomida davlatimiz rahbarining 79 ta hujjati (farmon, qaror va bayonlar) asosida 223 ta topshiriq ustida ishlandi. Shundan 146 tasining ijrosi to'liq ta'minlanib, nazoratdan yechildi va 65 ta topshiriq doimiy tusga ega bo'lgani bois, keyingi muddatga o'tkazildi,



Vazirlar Mahkamasining 37 ta hujjatidagi 154 ta topshiriq bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Xususan, topshiriqlarning 125 tasi to'liq uddalandi, 20 ta topshiriq ijrosi 2025-yil uchun bajarilib, keyingi muddatga o'tkazilgan, 9 ta topshiriqni bajarish muddati 2026-yil etib belgilangan.

shuningdek, 12 ta topshiriqning bajarish muddati 2026-yil etib belgilangan.

Prezident Administratsiyasi rahbarining 17 ta hujjatidagi 31 ta topshiriq ijrosi bo'yicha tegishli ishlar qilindi. Xususan, topshiriqlarning 20 tasi to'liq bajarildi, 4 ta topshiriq keyingi muddatga o'tkazildi va 7 ta topshiriqni bajarish muddati 2026-yil etib belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining 37 ta hujjatidagi 154 ta topshiriq bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Xususan, topshiriqlarning 125 tasi to'liq uddalandi, 20 ta topshiriq ijrosi 2025-yil



So'z, amal va mas'uliyat tutashgan yerda yuksalish boshlanadi. Bugun ma'naviyat minbarlarda emas, elektron tizimlardagi shaffoflikda, fuqaroga o'z vaqtida berilgan javobda namoyon bo'ladi. Chunki zamonaviy davlatda ma'naviyat hissiyot emas, balki ishlaydigan tizimdir.

ИЖРО ИНТИЗОМИ
ИДОРЛАРАРО ЯГОНА ЭЛЕКТРОН ТИЗИМИ

uchun bajarilib, keyingi muddatga o'tkazilgan, 9 ta topshiriqni bajarish muddati 2026-yil etib belgilangan.

Raqamlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat rahbarining hujjatlarida belgilangan topshiriqlar soni 2023-yildagi 104 tadan 2024-yilda 145 taga, 2025-yil yakuniga ko'ra esa 223 taga yetgan. Topshiriqlar ko'lamining qisqa davrda ikki barobardan ziyodga ortishi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining mamlakatdagi islohotlar jarayonida asosiy g'oyaviy-ma'rifiy markaz sifatidagi o'rni keskin ortganini ifodalaydi.

Ko'rinib turibdiki, raqamlashtirilgan "Ijro.gov.uz" tizimi davlat organlarida soat mexanizmi kabi aniqlikni o'rnatmoqda. Yuqoridagi raqamlar shunchaki navbatdagi hisobot emas, bevosita jamiyat ma'naviyati va ma'rifatiga mas'ul bo'lgan markaziy idora xodimlarining xalq oldidagi hisobdorligini ko'rsatuvchi amaliy barometrdir.

Xalq bilan muloqot — samaradorlik garovi

2026-yil 13-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida xalq murojaatlari bilan ishlash tizimini yangi darajaga ko'tarish va jamoatchilik fikrini chuqur tahlil qilishga bag'ishlab o'tkazilgan maxsus yig'ilishda aholi dardini eshitish, har bir murojaatga adolatli va qonuniy yechim topish davlat organlarining ustuvor vazifasi ekanini alohida ta'kidlandi. Shu nuqtayi nazardan,

mas'ul tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish, murojaatlarni o'z vaqtida va sifatlari ko'rib chiqish orqali aholi ishonchini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yondashuvlar asosida markaz tomonidan ham fuqarolar murojaatlarini tizimli ravishda ko'rib chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz doim ta'kidlab kelayotgan "xalq davlat idoralari uchun emas, davlat idoralari xalq uchun xizmat qilishi kerak" degan tamoyil asosida markazda fuqarolar bilan ochiq va samarali muloqot izchil yo'lga qo'yilmoqda. Kelib tushgan murojaatlar amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq atroflicha ko'rib chiqilib, har bir masalaga huquqiy jihatdan asosli yechim topishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa aholi dardiga quloq tutish, murojaatlar bilan ishlashda mas'uliyat va adolat tamoyillarini ustuvor ekanini yaqqol ko'rsatadi.

Shu bilan birga, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tatbiq



SO'XDAGI O'ZGARISHLAR HAR BIR OILAGA FAROVONLIK OLIB KIRMOQDA

Prezidentimiz Farg'ona viloyatining So'x tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi. Bu so'xliklar hayot tarzida yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.



Farhodjon MIRSHARIPOV, Farg'ona viloyati teleradiokanalni bosh muharriri o'rinbosari, So'x telekanali guruh rahbari, "Do'stlik" ordeni sohibi

tom ma'noda yangi hayot olib keldi. Prezidentimizning siyosiy irodasi sabab yangi yo'llar ochildi. Chegaradan o'tish yengillashti. Tadbirkorlik uchun sharoitlar yaxshilandi. Zamonaviy bog'cha, maktab, poliklinika va uy-joylar barpo etildi.

Esimni taniganimdan buyon So'x daryosidan suv tashib ichganmiz. Yozda chang, qishda loy, muzlama ko'chalarda yurish amri mahol edi. Sal shamol tursa, chiroq o'chardi. Qo'shni shahar va tumanlarga borib kelishdagi qiyinchiliklar odamlarning sillasini quritgan. Bugun hamma narsa o'zgardi. Istalgan manzilga emini-erkin borib kelyapmiz. Yo'llarimiz asfaltlandi, piyodalar uchun alohida yo'lak, tungi yoritish chiroqlari o'rnatilgan ayni muddao. Yo'lsozlarga rahmat, ko'chalimiz tunlari ham kunduzgidek charog'on. So'xda ko'p qavatli uylar quriladi desa, hech kim ishonmagan. Bugungacha kelib Chashma, Devayron, Navobod mahallalarida qavat-qavat turar joylarga hayrat va havas bilan boqasiz.

So'xda yer osti konlaridan foydalanish borasida yangi loyihalarga kirishildi. Natijada qishloqlarga sanoat kirib bordi. Endi xomashyo emas, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish ko'lami oshdi, yuzlab yangi ish o'rinlari yaratildi. "Qalacha" mahalla fuqarolar yig'ini Javpoya massividagi travertin konida pardozbop tosh



ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilyapti. Bu yerda So'x daryosidan 223 metr balandlikka suv chiqarilib, Javpoyaga obihayot olib kelindi. Sekundiga 200 litr suv tortish quvvatiga ega 5 ta nasos stansiyasi qurildi. Natijada 1000 gektar yer foydalanishga kiritilyapti. Asrlar davomida e'tibordan chetda, qarovsiz bo'lgan yerlar yashillikka burkandi, yangi mevali bog'lar bo'y ko'rsatdi.

Mahalliy va xorijlik investorlar bilan qurilish marmari, yog'och uylar, turizm tarmoqlari, mikro GESlar qurish borasida istiqbolli loyihalar ro'yogga chiqarilyapti.

Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburmoma"da bir muddat So'xda yashagan haqida qimmatli bitiklar qoldirdigan. Tog' manzarasiga oshufta bo'lgan go'zal tabiatli, mehmondo'st odamlar bilan bog'liq xotiralar

bugun ham o'z qadr-qimmatini yo'qotgani yo'q. Bu yerdan topilgan osor-atiqalar, chor tarafdan o'rab olgan purviqor tog'lar, ko'ngillarga oshufta oqayotgan zilol soylar ko'hna zamin ahli azaldan mehnatsevar ekanidan dalolat beradi. Qo'shni davlatlar bilan yo'lga qo'yilgan o'zaro bordini-keldi, chegaradan o'tishda yaratilgan qulayliklar tufayli tumanda turizm tarmoqlarini rivojlantirish orqali sayyohlar oqimi ko'paydi. Ekoturizm va xizmat ko'rsatish yo'nalishlarini rivojlantirish loyihalari amalga oshirilyapti. Ko'lami keng ezu ishlar haqida ko'plab misollar keltirish mumkin.

Yig'ilishda tumanning turizm salohiyatiga alohida e'tibor qaratildi. Endi So'x daryosining Sarikanda, Ravon va Istiqbol mahallalaridan o'tgan qirg'oqlarida yangi turizm obyektlari quriladi. Bu aholi uchun ish o'rni, barqaror daromad degani. So'xliklar quvonchiga sabab bo'lgan yana bir yirik loyiha reabilitatsiya, fizioterapiya, dori-darmon logistikasi va tibbiy ta'limni bir hududda jamlagan tibbiy xizmatlar klasterini tashkil etish rejasi bo'ldi. Umuman, turizm va xizmat ko'rsatish sohasida 60 million dollar investitsiya jalb qilinadi. Ochig'i, avval So'x kabi tuman uchun 6 ming dollar sarmoya olib kelish ham mahol edi. Shuning o'ziyoz yangilanishlar ko'lami qanchalik keng ekanini

etilishi monitoring va tahlil tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Raqamli platformalar imkoniyatidan foydalanish nafaqat murojaatlarni tezkor ko'rib chiqish, balki takrorlanuvchi muamomalarni ildizi bilan aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tizimli yechimlar ishlab chiqishga xizmat qilmoqda.

Bu esa, o'z navbatida, hududlardagi dolzarb masalalarni barvaqt hal etish hamda davlat boshqaruvida yuqori samaradorlikka erishish garovidir.

Taraqqiyot texnikasi

Davlat xizmatchisiga xalq va davlat taqdiri ishonib topshiriladi. "Ijro.gov.uz" tizimiga kelib tushgan har bir topshiriq yoki murojaat zamirida inson taqdiri yotadi. Uni paysalga solish, o'z vaqtida bajarmaslik yoki yuzaki yondashish qonunon intizomiy jazo bo'lsa, sharqona ma'naviyat mezonlarida omonatga xiyonat, ya'ni og'ir ma'naviy javobgarlik sifatida baholanadi. Ijro intizomi bu o'rinda xodimning vijdon ko'zgusiga aylanadi.

Ijro intizomi va taym-menejment tushunchalarini milliy qarashlarimizda ifoda etadigan bo'lsak, ma'rifatparvar jaded bobolarimizning merosiga e'tibor qaratishimiz kerak. Abdurauf Fitrat isrofgarchilik deganda faqat to'g'ri-hashmlar yoki mol-dunyo isrofini emas, birinchi navbatda, vaqt va umr isrofini nazarda tutgan edi. Davlat idorasidagi byurokratiya, fuqaroning sarson qilinishi yoki bitta hujjatning haftalab tasdiq kutishi millat vaqtini o'g'irlash, taraqqiyot kushandasi va mudhish isrofgarchilikdir.

Mahmudxo'ja Behbudiy ham maqolalarida taraqqiy etgan millatlarining asosiy siri ularning qat'iy intizomi va tartibida ekanini kuyinib yozgan. Jamiyatni o'zgartirish uchun quruq his-tuyg'ular yetarli emasligi, qilingan har bir niyat (topshiriq) aniq va muddatli harakatga aylinishi kerakligini uqtirgan.

Jadidlarimizdan keyingi ziyolilar avlodi faoliyatiga nazar tashlasak ham intizom va tartib ular uchun eng muhim tayanch bo'lganiga ishonch hosil qilamiz. Masalan, atoqli navoiyshunos olim, O'zbekiston Qahramoni Suyima G'aniyeva bir subhatida "Mening hayotda va ilmida erishgan barcha yutuqlarimga faqat muntazamlilik, qat'iy intizom sabab bo'lgan", degan edi.

Yangi O'zbekistonda joriy qilingan raqamli nazorat tizimi aslida ana shu ichki madaniyatni shakllantirishga qaratilgan turtki.

Inson tabiatan qulaylikka va xotirjamlikka moyil. Qat'iy intizom qodimda, avvalo, o'zini o'zi nazorat qilish, vaqtni qadrlash va o'z kasbiga sadoqat hissini tarbiyalaydi. Ayniqsa, jamiyatning ma'naviy qiyofasi uchun bevosita mas'ul bo'lgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tizimida ijro intizomi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ma'naviyatni targ'ib qiluvchi ziyo maskani o'z faoliyatida ochiqlik va xalq bilan muloqot (murojaatlar bilan ishlash madaniyati)da boshqa barcha idoraga o'mak bo'lishi eng muhim ma'naviy mas'uliyatdir.

So'z, amal va mas'uliyat tutashgan yerda yuksalish boshlanadi. Bugun ma'naviyat minbarlarda emas, elektron tizimlardagi shaffoflikda, fuqaroga o'z vaqtida berilgan javobda namoyon bo'ladi. Chunki zamonaviy davlatda ma'naviyat hissiyot emas, balki ishlaydigan tizimdir.

Shunday ekan, haqiqiy ziyolilik balandparvoz gapirishda emas, muntazamlikka, topshiriqni o'z vaqtida ado etishda bilinadi.

Intizom — taraqqiyotning texnikasi, mas'uliyat esa uning ma'naviy drayveridir.

ko'rsatadi. Kutilayotgan natija shunga yarasha. Qariyb 2 ming ish o'rni yaratildi. Turizm xizmatlari hajmi 15 milliard so'mga, eksport esa 2 million dollarga oshirildi.

Har bir mahallada 10 tadan, jami 300 ta mikroloyiha ishga tushirildi. Loyihalar imtiyozli kredit resurslari evaziga qo'llab-quvvatlanib, 8,6 ming aholi kasb-hunarga o'qitildi. Ijtimoiy va infratuzilma obyektlari uchun qo'shimcha mablag'lar ajratildi. Buning barchasi aholi kundalik hayot tarzini, farovonligiga berilgan katta e'tibor va rag'bat.

Yana bir muhim jihaga e'tibor qaratish zarur. Loyihalar har bir hududning imkoniyati va iqlim sharoitidan kelib chiqib tanlanmoqda. Bu esa boshlangan ishlar samaradorligi va muntazamligini ta'minlaydi. Masalan, Qayroq massividagi 425 gektar yaylovda mevali bog'lar, Chashma mahallasidagi 60 gektar yerda za'faron plantatsiyalari, Ozod va So'x xo'jaliklariga qarashli 100 gektar maydonda koshkacha yetishtirish loyihalari amalga oshirish taklif etildi. Navobod mahallasida gulmohi (forel) balig'i yetishtirish, Devayron va Tuldasht hududlari oralig'ida o'ziq-ovqat sug'orish tarmog'i qurilishi hisobidan 500 gektar mevali bog' yaratish, ko'shimcha 300 gektar ekin maydonini o'zlashtirishga e'tibor qaratildi. Umuman olganda, bunyodkorlik, obodonchilik, aholi farovonligini oshirish, kambag'allik, ishsizlikdan xoli hududga aylantirish yo'lida yangi islohotlarga start berildi.

Hayotbaxsh islohotlar so'xliklar qalbiga quvonch, shodlik, shukronalik, daxldorlik tuyg'ularini olib kirdi. Bularning barchasi olis tog'li qishloqlarda yangi O'zbekistonning yangi tamadduni yuz ochib, taraqqiy etayotganidan dalolat beradi.



Xalqaro hamkorlik



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

SAVDODAGI DOIMYIY SHERIKLAR

O'ZBEKISTON — AFG'ONISTON ISHBILARMONLAR KENGASHI MAQSADLARINI BIRLASHTIRADI

Afg'oniston biz uchun yangi, hali to'liq o'rganilmagan, ammo katta salohiyatga ega bozorlardan biri. Keyingi yillarda yurtimiz mahsulotlarining ushbu bozorga kirishi faollashgan. Bu, bir tomondan, 40 millionga yaqin aholi istiqomat qiladigan Afg'onistonning mintaqadagi eng yirik iste'mol bozoriga egaligi, boshqa jihatdan, mamlakatda tayyor mahsulotlarga ham, investitsiya loyihalariga ham talab yuqoriligi bilan izohlanadi.

Milliy mahsulotlarimizning afg'on bozoriga kirib borishida har ikki tomon birdek faollik ko'rsatmoqda. Yil davomida ikki davlat biznes vakillari, tadbirkorlari o'rtasida bir necha uchrashuvlar, ko'rgazmalar, ishbilarmnlaridan

Muhammad Karim Hoshimiy boshchiligidagi delegatsiya yurtimizda mehmon bo'lib, qator iqtisodiy tadbirlarda ishtirok etdi. Tashrif faol uchrashuvlar, biznes-tadbirlar, qolaversa, yangi bitimlarga boy bo'ldi.



kengaytirish, tadbirkorlar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri hamkorlikni rivojlantirish va yangi qo'shma loyihalarni amalga oshirishda ko'priq vazifasini o'taydi. Birinchi yig'ilishda qator masalalar muhokama qilindi. Ayniqsa, qurilish materiallari, farmatsevtika, oziq-ovqat, to'qimachilik, elektrotexnika va neft mahsulotlari kabi ustuvor tarmoqlarni keng qamrab olish ko'zda tutildi.

Uchrashuvda eksport salohiyatini kengaytirish, raqamli bojxona tizimlarini joriy etish, moliyaviy va sug'urta xizmatlarini rivojlantirish hamda savdo jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Ko'rgazmalar, biznes-forumlar va B2B uchrashuvlarni muntazam tashkil etish orqali ishbilarmnlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada faollashtirish rejalashtirildi. Bu o'zaro sanoat kooperatsiyasini rivojlantirib, savdoni kengaytirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Tadbirkorlar o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri muloqot yangi sheriklar topish va investitsiya faolligini oshirishga xizmat qiladi.

5 milliard dollarlik mo'ljal

O'zbek va afg'on xalqlarini azaldan qo'shniqlik va do'stlik rishtalari bog'lab turadi. Ammo yaqin yillargacha qardosh davlat bozoriga nisbatan yopiq tizim sifatida, qolaversa, qo'rquv bilan qaralgan. Chegaralardan o'tib-qaytish yengillashib, o'zaro do'stlik va ishonch eshiklari ochilishi ortidan savdo-iqtisodiy munosabatlar ham kengayib bormoqda. Endi ikki davlatni o'zaro savdo aloqalarini chuqurlashtirish, bu orqali mamlakatlar iqtisodiy rivojiga hissa qo'shish maqsadlari birlashtirildi. Bu faollik keyingi yillarda aniq raqamlarda yaqqol ko'rinmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yili ikki davlat savdo aylanmasi qariyb 1,68 milliard dollarga yaqinlashdi. Bu avvalgi yillardagiga nisbatan 50 foiz o'sish ekanini aytimoqda. Endi esa mazkur raqamni 5 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. Bu shunchaki ko'zlanayotgan marra emas, balki o'rganishlar, imkoniyatlarini tahlil qilish orqali belgilangan aniq vazifadir.

Ya'ni bu borada har ikki tomon imkoniyatlari chamlangan. Uzoq kutmasdan, ularni ishga solish kerak. Harakatlar tobora faollashib borayotgani boisi shunda. Asosiysi, ikkala davlat o'zi uchun yangi bozorga dadil kirib bormoqda. Bu tadbirkorlarga ham yangi imkoniyatlar ochyapti. Masalan, Afg'oniston bozorida import mahsulotlarga talab nihoyatda katta bo'lib, bu yurtimiz ishbilarmnlarini eksportni oshirishga undaydi.

Ochig'i, Afg'oniston bozoriga tavakkal kirib borganlik. Ammo u yerda sifati mahsulotlarga talab yuqoriligi ko'rdik, — deydi O'zbekistonning "PREMIER" kompaniyasi vakili Shuhrat Komilov. — Mamlakatda kechayotgan yangi o'zgarishlar sabab iqtisodiy hamkorlikka keng yo'l ochilgan. Qolaversa, mahalliy mahsulotlarimiz u yerda ancha xaridor. Shu boisi, astasekin mahsulotlarimiz sonini oshirib, turini yangilab boryapmiz. Bugunga qadar 500 ming dollarlardan ortiq mahsulot eksport qildik. Bu ko'rsatkichni ikki baravar oshirish imkoniyatlarimiz bor, hozir shuning harakatidamiz. Muhimi, Afg'oniston bozoriga nisbatan avvalgidek qo'rquv, ikkilanishlar yo'q. Hozir ushbu mamlakat bilan nafaqat iqtisodiy, balki do'stona munosabatlarimiz ham rivojlanib borayotgani biz, tadbirkorlarni yanada faolroq hamkorlikka undayapti.

Afg'oniston ham iqtisodiy munosabatlarni faollashtirish harakatida. Ya'ni o'zaro savdoda import bilan birga eksportni oshirishga intilmoqda. Shu boisi, afg'on delegatsiyasi vakillarining yurtimizga tashrif doirasida Toshkent shahrida ilk bor "Made in Afghanistan Expo — Tashkent 2026" xalqaro ko'rgazmasi

bo'lib o'tdi. Unda Afg'onistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va xizmatlar namoyish etildi.

150 dan ortiq afg'on kompaniyasi oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, qurilish, to'qimachilik, zargarlik, gilamchilik hamda milliy hunarmandlik mahsulotlari bilan ishtirok etdi. Ikki davlat tadbirkorlari o'rtasida biznes-uchrashuv va muloqotlar, taqdimotlar o'tkazildi. Pavilyonlar bilan tanishgan mehmonlar afg'on ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yuqori baholadi.

Bu har ikki davlat o'rtasida savdo aloqalarini oshirish imkoniyatlarini yuqori ekanidan dalolat. Ulardan foydalanishga bo'lgan intilish barcha sohalarda yaqqol ko'zga tashlanyapti. Xususan, kuni kecha O'zbekiston Afg'oniston bilan farmatsevtika sohasidagi hamkorlikni kengaytirib, ikki tomonlama savdo hajmini 500 million dollarga yetkazishni rejalashtirayotgani xabar qilindi. Ikki tomon mas'ullari o'rtasida rasmiy uchrashuv o'tkazilib, shunga kelishilgan. Bunga erishish uchun qo'shma tezkor ishchi guruh tashkil etilib, yirik distribyutorlar bilan to'g'ridan to'g'ri hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda O'zbekistonda afg'on kapitali ishtirokidagi 500 dan ortiq kompaniya faoliyat yuritmoqda. Ularning aksari keyingi yillarda ish boshlagan. Ya'ni afg'onlar ham O'zbekistonga ishonchli va istiqbolli bozor sifatida qaramoqda. O'z investitsiyalarini kiritib, bizneslarini yo'lga qo'yyapti. Yangi tashkil etilgan O'zbekiston — Afg'oniston ishbilarmnlar kengashi ikki davlat o'rtasidagi ana shunday hamkorlik munosabatlari, savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish maqsad qilingan.

Ushbu platforma o'zbek-afg'on tadbirkorlari o'rtasidagi hamkorlikni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi, — deydi Afg'oniston Savdo va investitsiya palatasi raisi Muhammad Karim Hoshimiy. — Bu nafaqat savdo-iqtisodiy, balki o'zaro birodarlik aloqalari mustahkamlanishga xizmat qiladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatda afg'on ishbilarmnlar uchun barcha imkoniyat va shart-sharoitlarni yaratib berayotgani bizni quvontiradi. Qisqa vaqtda ikki davlat o'rtasidagi tovar aylanmasini 5 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingani ham harakatlarimiz va jiddiy ekanini ko'rsatadi. Biz o'zbekistonlik hamkasblarimiz bilan mustarak ishlab, bu maqsadga albatta erishamiz. Kengashning ilk yig'ilishida ko'plab muhim masalalarni muhokama qilib oldik. Ayni paytda O'zbekistondan Afg'onistonga eksport juda yaxshi ketyapti. Jarayonlarda shu kabi jihatlarga e'tibor qaratilib, ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aloqalarini birdek faol rivojlantirish ko'zda tutilgan. Har chorakda ko'rgazmalar o'tkazishini ham kelishib oldik.

Iroda TOSHMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

O'zbek va afg'on xalqlarini azaldan qo'shniqlik va do'stlik rishtalari bog'lab turadi. Ammo yaqin yillargacha qardosh davlat bozoriga nisbatan yopiq tizim sifatida, qolaversa, qo'rquv bilan qaralgan. Chegaralardan o'tib-qaytish yengillashib, o'zaro do'stlik va ishonch eshiklari ochilishi ortidan savdo-iqtisodiy munosabatlar ham kengayib bormoqda.

iborat delegatsiyalar tashriflari tashkil etilyapti. Hatto o'tgan yilning noyabr oyida Afg'onistonning Mozori Sharif shahrida O'zbekiston milliy mahsulotlari sotiladigan katta savdo markazi ochildi.

Ya'ni o'rtadagi o'zaro savdo aloqalari tobora kengayib, yangi format va bosqichga o'tib boryapti. Afg'oniston tomoni ham bundan manfaatdor bo'lgani holda barcha sohalarda iqtisodiy munosabatlarni kengaytirishga intilmoqda. Shu yilning mart oy oxirlarida Afg'oniston Savdo va investitsiya palatasi raisi

Asosiyo voqeiklardan biri O'zbekiston — Afg'oniston ishbilarmnlar kengashi tashkil etilgani bo'ldi. O'zbekiston Savdo-sanoat palatasida mazkur kengashning birinchi yig'ilishi ham bo'lib o'tdi.

Bu har ikki tomon biznesi uchun mutlaqo yangi platforma bo'lib, kengash tuzilishini tarixiy yoqimli sifatida baholash mumkin, — deydi O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi maslahatchisi Jamil Maqsudi. — Kengash tarkibiga jami 32 vakil kiritilgan. Ular ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni

"Qish g'amini yozda ye", degan naql bor. Chunki ayozli kunlarda hamma ishni to'liq bajarishga imkoniyat bo'lavermaydi. Albatta, har bir ish o'z vaqtida bajarilgani ma'qul. Biz hikoya qilmoqchi bo'lgan manzil odamlari uchun esa qishning ta'siri deyarli sezilgani ham yo'q. Boisi, ro'zg'or uchun kerakli mahsulotlarni allaqachon dalasida yetishtirib, g'amlab qo'ygan. Hamma narsa uchun bozorga borib o'tirmaydi. Yo'lingiz tushib, ayni saratonda shu tomonlarga kelib qolsangiz, buning sababini bilib olasiz.



Imkoniyat va imtiyoz

Mavsumda 25 million so'mgacha kirim

Kichikligidanoq qulog'iga rayhon qistirib yurishni odat qilib ulg'aygan Ozodaning gullarga mehri bo'lakcha. Ayni saraton kunlari kelinlik libosida yangi xonadonga qadam qo'yganida hovlidagi gullarga ko'zi tushib, hayratini yashira olmagan. Qishloqdagi maktabda muallim bo'lib ishlaydigan turmush o'rtog'i bahorda "Mana, senga olam-olam gul", degancha bir bog'larni gulxayri ko'chatini tutqazgan. Uni qanday parvarishlash, qaysi vaqtda "hosilini" terib olishni o'rgangan Ozoda ham tez ishga kirishdi. Chunki bu gul manzarali bo'lish bilan birga oilaga yaxshigina daromad ham keltiradi.

Ayoliga gul parvarishini ishonib topshirgan Mirjalol ham har safar mavsum oxirida bezovtalanib qoladi. Axir bu pallada g'alvir suvdan ko'tarilib, "jo'ja sanaladigan" payt boshlanadi. Yetishtirilgan dorivor o'simlik hosilini topshirish uchun yo'lga chiqqan er-xotin yaxshigina mablag' bilan qaytadi. Mehnatning tagi rohat, deganlaridek, kechga tomon uyda achchiqqina choy ichib, peshana teri evaziga topilgan mablag'ni sanashning gashini o'zga. Foydaning salmog'ini yaxshi bilsa-da, yana bir bor hisob-kitob qilarkan, muallimning yuzida mamnunlik aks etadi: "Cho'g'i yomon emas. O'tgan yili daromad 20 million so'mga yaqin edi. Bu yil 25 milliondan oshibdi. Demak, mavsum yomon bo'lmadi".

Ro'zg'orning kami but, turmush tashvishi ariydigan bo'ldi. O'tgani yaxshi kunga niyat qilindi. Ayni paytda omborxonaga kerakli oziq-ovqat mahsulotlari zarira qilinadi. Shu sabab qish kunlarida ham xotirjam, pinak buzishmaydi.

Chim mahallasida bu oila ko'pchilikka namuna. Jumladan, Sarbozor mahallasida yashovchi Nasriddin Choriyev ham tomonraqasiga gulxayri ekkandi. Avvaliga shu birgina o'simlikdan mo'may mablag' ishlab topishga unchalik ishonmadi. Dastlab bir sotix yerga ekti. O'zi bosh bo'lib, urug'i unib chiqishga qadar parvarishladi. Keyin turmush o'rtog'i qaraydigan bo'ldi. Ikki oyda nihollar gullab, hosil yig'ishtirib olinadigan payt keldi. Odatda gul bargi terilib, quritib olinadi va har uchto'rt kunda shu holat takrorlanadi. Kuzga qadar anchagina hosil olinadi.

Ilgari tomonraqadan foydalanib, yaxshi daromad topish mumkinligi haqida o'ylab ko'rmanan ekanman, — deydi Nasriddin Choriyev. — Qo'shni qishloqdagi tadbirkor yigitning tashabbusi bilan bugun bir qarich yer bo'lsa ham foydalanilmoqda. Urug'ni o'zlar beradi, hosilini ham o'zlar sotib oladi. Uzoqqa borib yurish shart emas. Hammasi shu hududning o'zida bajariladi. Bugun hududimizda ishsiz odam deyarli qolmadi. To'rt yildan buyon o'zim ham hovlimizga gulxayri ekib, qo'shimcha pul ishlab topyapman. 2025-yilda 3 sotix yerdan 30 million so'm daromad oldik. Bu yil ham shartnomam tuzganmiz.

Yangi loyihalarni ham ishga tushirishni maqsad qilgan. Buning evaziga hozir 40 kishi doimiy ish bilan ta'minlangan bo'lsa, yana 30 ish o'rni ochiladi. Mavsum paytida esa kuniga 300 dan ziyod kishi ish bilan band qilinadi.

Ikki farzandini yolg'iz voyaga yetkazayotgan Shahnoza Bozorova aynan gulxayri yetishtirish ortidan ro'zg'or tebratmoqda. Ilgari biror joyda ishlagan. Shu boisi, turmush o'rtog'ining vafotidan so'ng ish topish ilinjida edi. Bugun halol mehnati tufayli tomonraqasidan 15-20 million so'm daromad olmoqda.

Qishloqdan Yevropaga eksport

Bundan bir necha yil avval Azamat Choriyev tadbirkorlik qilish istagida harakat boshladi. Uning ilgama qiziqishi, chet tilini



yaxshi bilishi xorijdagi kompaniyalar bilan muloqot qilishga qo'l keldi. Natijada bir qancha tanishlar ortirib, biznes hamkorlik qilish borasida muzokaralar olib bordi. Qator takliflarni o'rganib chiqdi.

Mamlakatimiz iqlimi bilan yaxshi tanishib chiqqan xorijlik mutaxassislar Azamatga dorivor o'simliklarni ko'paytirib, quritilgan holda yetkazish taklifini berdi. Bu qamashilik yosh tadbirkorga ma'qul keldi. Shundan so'ng yigit ikki-uch marta chet elda tajriba oshirib qaytdi. Dorivor o'simliklarni yetishtirish jarayoni bilan tanishdi. Bu sohada yaxshigina malakaga ega bo'lgach, ish boshladi.

Dastlab tabiiy iqlimga mos gulxayri turini ko'paytirish ishlari sinovdan o'tkazildi. Tez o'sadigan bu o'simlikdan mo'may daromad olish mumkinligiga ko'zi yetgach, harakat boshladi. "BBU Azamat" mas'uliyati cheklangan jamiyatini tashkil etib, xalqaro tashkilotlar bilan shartnomalar tuzdi.

Avvaliga ozroq maydonda yetishtirilgan hosilni eksport qilib ko'rdi. Ilk natijalar xorijlik hamkorlarga ma'qul keldi. So'ng mahsulotlarni yanada ko'proq yetkazish taklif qilindi. Tadbirkor buning ham imkonini topdi. Qishloq aholisiga bo'sh turgan yerdan unumli foydalanishni taklif qildi. Odamlarga kerakli nihollar yetkazib berib, hosilini ham o'zi sotib olishini aytganida, dastlab ko'pchilik e'tibor bermadi. Ammo bugun qiziqqanlar yaxshigina mablag' ishlab topa boshlagach, gulxayri ekish istagidagilar ko'paydi.

Universitetda qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha o'qiganman, — deydi Azamat Choriyev. — Magistraturani Angliyada o'qidim. Xorijda bilim olish bilan birga shu yo'nalishda

ishlashga ham harakat qildim. Mutaxassislarim tajribasini o'rganishga intildim. Biologiyaga qiziqishim yuqoriligi sabab o'simliklar haqida ko'proq ma'lumot yig'ib yurardim. Keyinchalik dorivor o'simliklarni yetishtirish borasida malaka oshirdim. Shu jarayonda kosmetika va farmatsevtikada keng qo'llanadigan o'simliklar bilan qiziqdim. Chet eldagi mutaxassislarga ayrim o'simliklarni O'zbekistonda yetishtirish taklifini berdim. Ammo ular bu muammo ekanini aytdi. Sababi ular aytgan dorivor g'iyoh hamma joyda ham o'smas ekan. Tavakkal qilib, sinash uchun bir necha tulp ekib ko'rdim. Iqlimimizga mos ekan, birinchi yilning o'zida kutilgan natijaga erishdik. Xorijlik hamkorlar mahsulotimizni laboratoriya tekshiruvidan o'tkazib, hayron qoldi. Shundan so'ng ularning hamkorlikka qiziqishi ortdi. Shu bilan ishimiz rivojlanib ketdi. Tadbirkorlar uchun yaratilgan imtiyozlardan foydalanib, kam bo'lmadim. Hali rejalarni ko'p.

Bugun Qamashi tumanining "Chim", "Qo'shkapa", "Sarbozor" mahalla fuqarolar yig'inlari hududidagi mingdan ortiq xonadonda dorivor o'simlik yetishtirilmoqda. Bir mavsumda shuncha xonadonning har biriga o'rtacha 30 million so'mning kirib borishi hududda kambag'allikni kamaytirishga ko'maklashmoqda.

Tadbirkorning ma'lumotlariga ko'ra "BBU Azamat" mas'uliyati cheklangan jamiyati hozir Yevropa davlatlariga mahsulot eksport qilib kelmoqda. Misol uchun, 2025-yilda 3 million dollarga yaqin qiymatdagi mahsulot eksport qilingan bo'lsa, joriy yil uchun 3,5 million dollarlik shartnomam imzolangan. E'tiborli jihat, dunyo bozorida dorivor o'simliklarga talabni ta'minlashda Azamat Choriyev yuqori o'rnlarni egallagan.


Albatta, tadbirkor bu bilan to'xtab qolmoqchi emas. Bu yilgi mavsumda dorivor o'simliklarni sonini ko'paytirib, yanada ko'p odamning bandligini ta'minlash niyatida. Shu bilan birga, yangi loyihalarni ham ishga tushirishni maqsad qilgan. Buning evaziga hozir 40 kishi doimiy ish bilan ta'minlangan bo'lsa, yana 30 ish o'rni ochiladi. Mavsum paytida esa kuniga 300 dan ziyod kishi ish bilan band qilinadi. Azamat Choriyevning aytishicha, 2025-yil omadli kelgan. O'tgan yili dekabrda davlatimiz rahbarining "Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan soha rivojiga munosib hissa qo'shgan yurtdoshlarimizdan bir guruhni mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Bu yuksak rag'bat yosh tadbirkorni yangi marralar sari chorlashi shubhasiz.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

SOHIBQIRON MEROSI VA ZAMONAVIY TAFAKKUR UYG'UNLIGI

Kengash davlat boshqaruvida doimiy ahamiyatga ega bo'lgan. Amir Temur turli fikrlarni tinglab, ularning yaxshi va yomon tomonlarini chuqur o'ylab ko'rgan holda eng to'g'ri yo'lni tanlab edi. Demak, mashvarat so'zsiz qabul qilinadigan jamoaviy hukm emas,

Ushbu tarixiy g'oyalar bugungi yangi O'zbekistonning konstitutsiyaviy modeli bilan mazmunan hamohangdir. Konstitutsiyamizda O'zbekiston boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani, davlat



XIV asr oxiri hamda XV asr boshlarida Samarqand nafaqat poytaxt, balki qit'alararo muloqot, karvonlar qatnovi, elchilarning kelib-ketishi va madaniy almashinuvlarning ulkan markaziga aylandi. Bu holat Amir Temur davlatining tashqi dunyoga yopiq emasligini, aksincha, muloqot uchun ochiq va strategik jihatdan to'g'ri yo'naltirilgan siyosiy makon bo'lganini ko'rsatadi.

balki hukmdorning irodasini puxtalashtiruvchi aqliy saralash jarayoni bo'lgan.

“Kuch — adolatda” tamoyili va fozil jamiyat g'oyasi

Amir Temur davlatchilik tafakkurining eng muhim o'zgarishlari biri adolat g'oyasidir. Shu o'rinda adolat mavhum axloqiy shior emas, balki davlatni saqlab turuvchi amaliy me'yor sifatida namoyon bo'ladi. Bozorlardagi savdo suiste'molliklariga yo'l qo'ymaslik, narx-navo ustidan nazorat o'rnatish, zaiflarni himoya qilish va umumiy tartibni ta'minlash kabi yondashuvlar ham aynan shundan dalolat beradi.

“Kuch — adolatda” tamoyili kuchning asl manbai zo'rvonlik emas, qonuniylik, tartib va haqqoniy boshqaruv ekanini ham anglatadi. Amir Temur davlatning qudratini xalq manfaatlarini himoya qilish, boshboshdoqlikni

Diplomatiya va Buyuk ipak yo'lining qayta tiklanishi

XIV asr oxiri hamda XV asr boshlarida Samarqand nafaqat poytaxt, balki qit'alararo muloqot, karvonlar qatnovi, elchilarning kelib-ketishi va madaniy almashinuvlarning ulkan markaziga aylandi. Bu holat Amir Temur davlatining tashqi dunyoga yopiq emasligini,



jilovlash va jamiyatda muvozanat o'rnatishda deb tushungan. Shu ma'noda, adolatsiz kuch yemiruvchi omilga, adolat bilan boshqariladigan kuch esa bunyodkor qudratga aylanadi.

Fozil jamiyat g'oyasi ham aynan shu mantiqning uzviy davomidir. Bu qandaydir utopik jamiyat emas, balki tartib, mehnat, savdo xavfsizligi, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy me'yorlarga tayangan real davlat hamda jamiyat tasavvuridir. Bunday muhitda davlatning vazifasi faqat hukmronlik qilish bo'lmay, tinch iqtisodiy muomala, hunarmandlik, farovon shahar hayoti va ijtimoiy muvozanat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berishdan iboratdir.

aksincha, muloqot uchun ochiq va strategik jihatdan to'g'ri yo'naltirilgan siyosiy makon bo'lganini ko'rsatadi.

Amir Temur davrida savdo yo'llari xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining markaziy masalalaridan biriga aylangan edi. Ichki tartibni saqlash, karvon yo'llarini muhofaza qilish, bozorlar ustidan nazorat o'rnatish va shaharlarning barqarorligi savdo rivojining asosiy shartlari bo'lib xizmat qildi. Xitoy, Hindiston, Xuroson, Eron, Misr, Rum va Yevropa davlatlari bilan tovar almashinuvini kuchaytgan, Samarqand bozorlariga turli mamlakatlardan mahsulotlar keltirilgan haqidagi tarixiy ma'lumotlar Amir Temur saltanatining ulkan geoiqtisodiy qudratidan dalolat beradi.


Diplomatiya ham ushbu tizimning ajralmas qismi hisoblangan. Amir Temur saroyiga Misr, Turkiya, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlar elchilarning tashrif buyurishi, Ispaniyaga elchilar yuborilishi va Klavixos safarining amalga oshirilishi uning tashqi siyosati naqadar keng qamrovli bo'lganini ko'rsatadi. Bu munosabatlarda qamrovli bo'lganini ko'rsatadi. Bu munosabatlarda qamrovli bo'lganini ko'rsatadi.

Sohibqiron turli davlatlar bilan munosabatlarda nafaqat qo'shin kuchiga tayangan, balki maktab

Munosabat

ENDI E'TIBOR YUQORI POG'ONAGA KO'TARILMOQDA

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Temuriylar tarixi davlat muzeyi ekspozitsiyasi tubdan yangilanib, zamon talablariga mos ravishda qayta tashkil etildi.



**Xurshid FAYZIYEV,
Temuriylar tarixi davlat
muzeyi direktori, tarix
fanlari nomzodi, dotsent**

Mazkur yangilanish, avvalo, muzeylarning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Chunki har qanday muzey nafaqat tarixiy yodgorliklar saqlanadigan maskan, balki ma'naviyat va ma'rifat o'chog'idir. Shu nuqtayi nazardan, uni doimiy ravishda zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, ekspozitsiyalarni boyitib borish ustuvor vazifalardan.

Yangilangan ekspozitsiyaning eng muhim jihatlardan biri temuriylar davriga oid noyob ashyolarning muzeyga olib kelinishidir. Xususan, muzey fondi eng qimmatli tarixiy eksponatlar bilan boyitildi. Bu esa yangi O'zbekistonda ilk bor amalga oshirilayotgan muhim tashabbus sifatida alohida e'tiborga molik.

Bugunga qadar temuriylar davriga oid asl ashyolar nafaqat mazkur muzeyda, balki respublika miqyosida ham nisbatan kam edi. Yangi eksponatlar keltirilishi ushbu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etilishi muhim tarixiy qadam bo'ldi. U yerda ham Amir Temur va temuriylar davriga bag'ishlangan ekspozitsiya yo'lga qo'yilib, noyob va original ashyolar bilan boyitildi. Bu kabi islohotlar nafaqat mahalliy aholida, balki xorijlik sayyohlarda ham katta qiziqish uyg'otishi tabiiy.

Yangilangan muzeyning yana bir o'ziga xos jihati uning ilg'or axborot texnologiyalari asosida jihozlanganidir. Endilikda tashrif buyuruvchilar eksponatlarni ko'rish, ular haqida o'zbek, ingliz va rus tillarida to'liq ma'lumot olish imkoniyatiga ham ega bo'lmoqda. Bu esa muzey xizmatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Yaqinda davlatimiz rahbari muzey ekspozitsiyasi bilan tanishish jarayonida har bir eksponatga alohida e'tibor qaratib, sohani yanada rivojlantirish bo'yicha muhim tavsiyalar berdi. Jumladan, temuriylar davri tarixi va madaniyatini yorituvchi ilmiy va badiiy asarlarni ko'paytirish zarurligini alohida ta'kidladi.

Albatta, bunday e'tibor va qo'llab-quvvatlash zimmasiga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Zero, yosh avlodni ma'naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalashda ana shunday ma'naviyat maskanlarining o'rni beqiyos.

almashish, elchilar yuborish, qabul marosimlari va siyosiy ramzlar orqali ham o'z ta'sirini o'tkaza olgan. Klavixos elchiligi, Misr va Turkiya tomonidan yuborilgan elchilar, shuningdek, Xitoy va Hindiston bilan o'rnatilgan aloqalar haqidagi ma'lumotlar Samarqandning chinakam xalqaro siyosiy muloqot markaziga aylanganini tasdiqlaydi. Bu holat Amir Temur davrida diplomatiya va savdo bir butun siyosiy-iqtisodiy tizim sifatida muvaffaqiyatli ishlaganini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Buyuk ipak yo'li Amir Temur davrida shunchaki tarixiy yo'nalish bo'lib qolmay, davlatchilikning asosiy geoiqtisodiy ustuniga ham aylangan edi. Karvonlar qatnovi, bozorlar faoliyati, hunarmandlik mahsulotlari keng tarqalishi va shaharlar yirik tranzit markazlariga aylanishi saltanatga faqatgina iqtisodiy foyda keltirib qolmasdan, ulkan siyosiy nuflu ham bag'ishlagan. Samarqand, Buxoro va Shahrisabz kabi yirik markazlar aynan shunday qulay sharoitda iqtisodiy va madaniy yuksalish cho'qqisiga chiqdi. Shu bois, Amir Temur siyosatida yo'llar va shaharlar ustidan nazorat o'rnatish xuddi harbiy g'alaba qozonish kabi o'ta muhim ahamiyat kasb etgan.

Ibrat maktabi

Yangi O'zbekistonda Amir Temur merosi faqatgina tarixiy xotira obyekt sifatida emas, davlatchilik, ma'naviyat, yoshlar tarbiyasi va milliy taraqqiyot g'oyalari bilan uzviy bog'liq bo'lgan tirik ma'naviy-siyosiy resurs sifatida ham angatlanmoqda. Prezidentimiz qarorida Sohobqiron tavalludining 690 yilligini keng nishonlash, har yili aprelni “Amir Temur oyligi” deb e'lon qilish, shuningdek, barcha ta'lim muassasalari, harbiy qismlar, mahallalar va tashkilotlarda keng qamrovli ma'rifiy tadbirlar o'tkazish belgilangan ham aynan shundan dalolat beradi.

Bu jarayon shunchaki ramziy ulug'lashdan iborat emas. Mazkur qarorda xalqaro ilmiy ijtimoiy hamjamiyatni qo'llab-quvvatlash, tarixiy kitoblar chop etish, tarjimalar qilish, hujjati va badiiy filmlar yaratish hamda turli ko'rgazmalar tashkil etish kabi muhim vazifalar ham belgilab berilgan. Demak, bugungi kunda Amir Temur merosiga shunchaki hissiy xotira obyekt deb emas, keng ilmiy muomalaga kiritilishi lozim bo'lgan ulkan tarixiy meros sifatida ham qaralmoqda.

Sohibqiron merosining eng dolzarb qirralaridan biri, shubhasiz, yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq. Ulug' bobokalonimizga xos qat'iyat, adolatparvarlik, ilm-fanga hurmat, yuksak intizom va mas'uliyat kabi ezuq fazilatlar bugungi yosh avlod uchun haqiqiy ibrat maktabi sifatida talqin qilinmoqda. Shu ma'noda, Amir Temur obrazini bugun faqatgina o'tmish qahramoni bo'lib qolmay, milliy o'zligimiz, vatanparvarlik tuyg'usi va davlatchilik madaniyatimizni yanada mustahkamlovchi buyuk ma'naviy ramzga aylangan.

Bugungi kunda Amir Temur obrazini vatanparvarlik, yuksak intizom, adolat, tarixiy g'urur va davlatchilik madaniyati g'oyalari bilan chambarchas bog'langan holda talqin qilinmoqda. Biroq bu ishni faqatgina quruq targ'ibot darajasida qoldirmaslik zarur, tarixiy meros qanchalik ko'p manbalar, teran qiyosiy tahlillar va jiddiy ilmiy izlanishlar asosida o'rganilgan, u shunchalik mazmunli va samarali o'zlashtiriladi. Shuning uchun Amir Temur merosini anglash jarayoni asosan ikki yo'nalishda kechmoqda deyish mumkin: birinchisi — ma'naviy-ramziy, ikkinchisi — ilmiy-mabshunoslik. Bu ikki yo'nalish aslo bir-biridan ajralib qolmasligi kerak. Negaki, ilmiy asosdan uzilgan quruq ulug'lash tezda balandparvoz shiorga aylanib qoladi, milliy xotiradan uzilgan sof ilmiy tadqiqot esa keng jamiyat ongiga yetib bormaydi. Demak, eng to'g'ri va oqilona yo'l ushbu ikki yo'nalishni muvofiqlik holda birlashtirishdir.

Amir Temur merosining tarixiy ahamiyati faqatgina uning shaxsi bilan cheklanib qolmaydi. U keyingi temuriylar Renessansi uchun zarur bo'lgan mustahkam siyosiy va madaniy poydevorni yaratib berdi, Shohrux Mirzo va Mirzo Ulug'bek davrida esa bu meros ilm-fan, madaniyat va ma'rifat nuri bilan yanada boyidi. Bugun mazkur boy meros huquqiy va ijtimoiy davlat tamoyillari, Uchinchi Renessans poydevori va “O'zbekiston — 2030” taraqqiyot strategiyasi bilan o'ziga xos ma'naviy-g'oyaviy muloqotga kirishgan holda butunlay yangicha mazmun kasb etmoqda.

Shuning uchun Amir Temurni anglash faqatgina o'tmishni ulug'lash emas, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni, adolat va qudrat muvozanatini, tarixiy vorislikni, ma'naviy yuksalish hamda kelajak strategiyasi haqida chuqur o'ylab ko'rish ham demakdir. Agar tarixiy xotira to'g'ri o'qilsa va anglansa, u millatni faqat oldinga yetaklaydi.

Bugungi kunda Amir Temur shaxsiyatiga murojaat qilish shunchaki tarixiy xotira ehtiyoji emas, balki milliy davlatchilik tafakkuri, tarixiy adolat va sivilizatsion o'zlikni anglash bilan bog'liq masaladir. Amir Temur fenomeniga oid manbalar va tadqiqotlar uning shaxsiga turli davrlarda turlicha baho berilganini ko'rsatadi. Shu bois, Sohobqiron faoliyatini davlatchilik, adolat, harbiy san'at, diplomatiya, ma'naviy meros va zamonaviy talqin nuqtayi nazaridan, manbalar qiyosi asosida tahlil qilish muhim vazifalardan biridir.



**Naim OBLUMURODOV,
tarix fanlari doktori,
professor**

Amir Temur davlatchiligining institutsional negizi


Amir Temur barpo etgan saltanatning barqarorligi tasodifiy kuchga emas, balki muayyan institutsional asoslarga tayangan edi. U hokimiyatni tartibga solingan siyosiy iroda, markazlashgan boshqaruv, xizmat va sadoqat tamoyillari asosida ishlaydigan mukammal davlat mexanizimga aylantirdi. Bu davlat tizimida markaziy hokimiyat ustuvor bo'lsa-da, uning amaliy faoliyati saroy, devon, harbiy qo'mondonlik, hududiy boshqaruv va moliyaviy nazorat institutlari orqali samarali yuritildi.

“Temur tuzuklari”da davlat ishlarini yuritishda vazirlar, qo'shin boshliqlari, amirlar va turli toifa xizmatchilarning vazifalari aniq ajratib ko'rsatilgan bejiz emas. Mazkur manbada davlat xizmatiga qo'yiladigan talablar — aql-zakovat, tadbirkorlik, sadoqat, hushyorlik hamda el-yurt manfaatini anglash kabi sifatlar alohida tilga olinadi. Shuning o'ziyiq Amir Temur davlatni shaxsiy sadoqat va yaqinlik bilan emas, balki xizmatga loyqlik hamda mas'uliyat tamoyilari asosida mustahkamlashga intilganini ko'rsatadi.

Amir Temurning boshqaruv tizimida markaz va hududlar o'rtasidagi munosabatlarni puxta o'ylangan edi. Saltnat hududi g'oyat ulkan bo'lgani sababli barcha yerlarni bir xil usulda idora etishning amalda iloji yo'q bo'lgan. Shu sababli markaziy hokimiyat uchun strategik ahamiyatga ega hududlarda bevosita nazorat kuchaytirilgan bo'lsa, markazdan olis ayrim yerlarda tobelik, vafodorlik, soliq majburiyati va harbiy xizmat orqali siyosiy bog'liqlik ta'minlangan. Bunday yondashuv Amir Temur davlatchiligining real siyosiy tabiatiga to'la mos tushardi: u ideal emas, balki amaliy boshqaruv modelini qurdi. Bu holat uning saltnatini qisqa muddatli harbiy ittifoqlardan farqlab, uni haqiqiy davlatchilik an'anasi darajasiga ko'taradi.

Soliq, moliya va iqtisodiy nazorat masalalari ham davlat tuzumining muhim qismi bo'lgan. Faqatgina savdo yo'llari, bozorlar, hunarmandlik markazlari va shaharlar xavfsizligini ta'minlashning o'zi yetarli emas edi, davlatga, shuningdek, barqaror moliyaviy tayanch ham kerak bo'lgan. Manbalarda Amir Temur davrida ta'minlash, narx-navoni assosiz oshirish va jamiyat hisobidan boyishga intilish qattiq jazolangan qayd etiladi. Demak, davlat tartibi faqat harbiy kuch bilan emas, balki iqtisodiy adolat va kuchli ma'muriy nazorat orqali ham ta'minlangan.

Amir Temur kadrlar siyosatida ham shaxsiy sadoqat bilan kasbiy salohiyatni birdek qadrlagan. “Temur tuzuklari”da vazirlar, sarkardalar va davlat xizmatchilariga nisbatan qo'yilgan talablar buning yorqin dalilidir.



“Kuch — adolatda” tamoyili kuchning asl manbai zo'rvonlik emas, qonuniylik, tartib va haqqoniy boshqaruv ekanini ham anglatadi. Amir Temur davlatning qudratini xalq manfaatlarini himoya qilish, boshboshdoqlikni jilovlash va jamiyatda muvozanat o'rnatishda deb tushungan. Shu ma'noda, adolatsiz kuch yemiruvchi omilga, adolat bilan boshqariladigan kuch esa bunyodkor qudratga aylanadi.

Qadimiy va navqiron Ellikqal'a tumanida bahor gul ochgan faslda chag'alaylar emin-erkin suzib yurgan Aqchako'l sohilida o'tkazilgan tanlov, o'z navbatida, yoshlarga oid islohotlar samaradorligini oshirish, ularning qiziqishi va qobiliyatini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etdi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



Aqchako'l ilhomlari

BAXTIM MENING, JONIM O'ZBEKISTONIM!

Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanida 7-8-aprel kunlari Respublika yosh ijodkorlarining "Aqchako'l ilhomlari" ijodiy tanlovi bo'lib o'tdi. O'zbekiston mustaqilligining 35 yilligiga bag'ishlab, "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" shiori ostida o'tkazilgan mazkur anjuman mamlakatimiz yosh shoirlari, yozuvchilari va musavvirlarini birlashtirgani, ona Vatanimizni, eng ulug' va eng aziz bo'lgan mustaqilligimizni tarannum etish uchun ularga ijodiy muhit va sharoit yaratib bergani ayni haqiqat.



Rustam MUSURMON,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,
Qoraqalpog'iston xalq shoiri

Tadbirni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'rg'at Kengesi raisi Amanbay Orinbayev tabrik so'zi bilan ochib, yaqin uch yil ichida Qoraqalpog'istonni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha Prezidentimiz tomonidan yetimlik sakizta farmon va qaror qabul qilinganini alohida ta'kidladi.

Aholining elektr energiyasiga ehtiyojini to'liq ta'minlash hamda energetika sohasini yanada rivojlantirish maqsadida Beruniy, Qo'ng'iro't tumanlarida shamol elektr stansiyalari qurilmoqda.

Qipchoq sohilida Amudaryo uzra muhtasham temir yo'l ko'prigi qurildi. Qoraqalpog'istonda sanoat sohasi rivojlanayotir. Istitish batareyalari zavodi hamda Nukus bazalt tolasini ishlab chiqarish zavodi ishga tushirildi.

Yaqin yillarda 3,5 milliard dollarlik investitsiya kiritiladi.

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Qadimiy va navqiron Ellikqal'a tumanida bahor gul ochgan faslda chag'alaylar emin-erkin suzib yurgan Aqchako'l sohilida o'tkazilgan tanlov, o'z navbatida, yoshlarga oid islohotlar samaradorligini oshirish, ularning qiziqishi va qobiliyatini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, xalq shoiri Sirojiddin Sayyid so'zga chiqib, Prezidentimiz tomonidan badiiy adabiyotni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar, adabiyot va ma'naviyat sohasidagi islohotlarga alohida ta'kidladi.

Bütün umri va ijodi davomida ozodlikni orzu qilgan, xalq manfaatlarini o'ylagan va xalqqa xizmat qilishni kuylagan Berdaq shoir aytganidek, baxtli-shodon, iste'dodli, har ishni puxta o'ylaydigan, esli-hushli, xalqimizning dastoyori bo'lib, g'urur-iftixor bilan ko'klarga mag'rur bo'yaydigan yoshlarimiz bor.

Davlatimiz rahbarining yuksak e'tibori sharoitlari bilan o'zbek-qoraqalpog' adabiy aloqalari rivoji yangi bosqichga ko'tarildi. Toshkent shahrida barpo etilgan Adiblar xiyobonida o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining ulug' siymolari bilan birgalikda qoraqalpog' adabiyotining ham uch ulug' namoyandasi — Berdaq, Ibroyim Yusupov va To'lepbergen Qaipbergenovga muhtasham yodgorlik o'rnatildi, Nukus shahrida Ibroyim Yusupov nomidagi ijod maktabi ochildi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, Qoraqalpog'iston xalq shoiri Kengesboy Karimovning "Og'abiy" romani, Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi Sharap Usnatdinovning "Ibroyim Yusupov" roman-essesi o'zbek tilida nashrdan chiqdi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining "Adib va jamiyat" turkum kitoblari loyihasi asosida Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi Allanazar Abdiyevning "Burgut cho'qqi" nomli roman, qissalar va hikoyalari to'plami o'zbek tilida chop etildi.

2026-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi Muratboy Nizanovning "Tanlangan asarlar" nashri qilinib, o'zbek kitobxonlariga tuhfa etildi.

Tadbir munosabati bilan Aqchako'l bo'yida Ellikqal'a tumani ovul fuqarolar yig'inlari, san'at maktablari, umumta'lim maktablari va maktabgacha tarbiya tashkilotlari milliy taomlar, kashtalar, xalq amaliy san'ati namunalari ko'rgazmalarini namoyish etdi. Aqchako'lning obod etilgan, dam olish



dasturxon yozib, choy damlagan, yosh-yalang dastyorlar xizmatga shay. Aqchako'l sohili xalq sayli bilan gavjum.

Ellikqal'a mamlakatimizning ko'p millatli tumanlaridan biri. O'zbekcha, qoraqalpog'cha, turkmancha, qozoqcha, tatarcha, ruscha, ozarbayjoncha milliy liboslar ko'zni yashnatadi. Kamay-surnaylar, nog'ora-yu doiralari, qo'biz-u dutorlar, chanqovuzlar, rubob-u torlar musiqalari ko'ngilni shod etadi. Bir yonda axaltekini asl noyob tulporlar mingan chavandozlar asl toylarning suluvligini namoyon etib, ot ustida mag'rur turibdi. Aqchako'l osmoni uzra pag'a-pag'a bulutlar karvoni. G'ir-g'ir esayotgan shamol ko'l suvlarini bir maromda mavjantirgan. Gala-gala chag'alaylar husni jamoli bilan suvning mavjlariga ko'rk bag'ishlaydi. Ko'lining o'rtasida suzayotgan oq kema yurakni orziqtiradi.

Ushbu manzaralarni yosh musavvirlar moybo'yoqda tasvirlashga tutingan. Shoirlarning lablari pichirlab, she'riy satrlar to'qishga chug'langan. Yozuvchilar yozilajak hikoyalari uchun manzaralarni xotirasiga muhrlashga intilgan. Xullas, ijodiy muhit qaynagandan-qaynadi.

Qirg'oqqa tikilgan oq o'tovlar erganlari mehmonlar uchun qoraqalpog'ning beg'ubor ko'ngiliday ochiq. Kunning ikkinchi yarmida anjuman ahli Ellikqal'a tumani ixtisoslashtirilgan san'at maktabi hududida barpo etilgan Abdulla Oripov bog'iga ko'chdi. "Aqchako'l

ilhomlari" tanlovining tamal toshini qo'yan ustoz Abdulla Oripov nomida bog' bunyod etilgani ayni muddao. Boqqa kiraverishda elimiz ardog'idagi shoir siymosi tushirilgan surat ostiga ustozning mashhur to'rtligi bitilgani barchaning e'tiborini tortdi:

**Guldan gulga qo'nib sahar palladan
Bolari bol yig'ar guldan, daladan.
Shoir ham bolari bo'lsaydi agar,
Ishin boshlar edi Ellikqal'adan.**

Abdulla Oripov bog'i ramziy ma'noda gullab-yashnayotgan she'riyat bog'i, adabiyot bog'idir. Bu bog', albatta, Toshkentda bunyod etilgan Adiblar xiyoboni bilan chambarchas bog'liq. Uning gullari va ko'chatlari Adiblar xiyobonidan keltirilgan kelgan. Mubolag'a emas. Yozuvchi, shoirlar va jamoatchilik vakillari Ellikqal'a tuprog'iga egzu niyatlar bilan mevali daraxt ko'chatlarini ekdi.

Har sohada yangilik, har yonda bahor, har chamanda gullab-yashnash degandek, Ellikqal'adagi bunyodkorlik tadbiri ishtirokchilariga yanada ko'tarinki ruh, ijodiy zavq bag'ishladi.

Ayniqsa, Ellikqal'a tumanidagi madaniyat saroyida O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovning byusti ochilishiga bag'ishlangan tadbir barchani hayajonlantirdi. Ustozning yodgorlik byusti shaklida bugungi avlodga boqib turgan nurlu siymosi go'yo: "Bu buyuk Vatanning qadriga yetinglar!" deb nasihat qilayotgandek. Beixtiyor ustoz shoir hayotlik vaqtida "Aqchako'l ilhomlari" anjumaniga kelayotib, Amudaryo ko'prigi ustida aytib yuborgan she'ri yodimizga tushdi:

**Kimligimni bilardim ozroq,
Bilar edim suyukligimni.
Amudaryoni ko'rganda biroq
Bilib qoldim buyukligimni!**

Anjuman doirasida mehmonlarning Ellikqal'aning diqqatga sazovor maskanlari, tarixiy obidalari, yangi qurilgan inshootlari bilan tanishuvi tadbir mazmunini yanada boyitdi. Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal'a fakultetida tashkil etilgan O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf muzeyi ekspozitsiyasi bilan tanishuv, Bo'ston shaharchasida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Matnazar Abdulhakimning "Darsdan so'ng" she'ri asosida bunyod etilgan "Ustozga ehtirom"

2024-yilda davlatimiz rahbarining "Atoqli qoraqalpog' shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li tavalludining 200 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur tarixiy



qarorga binoan Ajiniyozning to'liq "Asarlar" kitobi o'zbek va qoraqalpog' tillarida nashr etildi, Ajiniyozning ibratli hayoti va ijodi yoritilgan badiiy film suratga olindi. 2019-yilda O'zbekiston Qahramonlari Ibroyim Yusupov va To'lepbergen Qaipbergenov tavalludining 90 yilligi keng nishonlandi. Har ikki ulug' ijodkorning "Tanlangan asarlar"i ko'rkam shaklda nashr etildi. "Turkiy adabiyot durdonalari" 100 jildli kitoblarni majmuasining 34-38-jildlari qoraqalpog' adabiyotiga bag'ishlangan.

2021-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan "Nazm bo'stoni" turkumida Berdaqning "Yurt g'amxo'ri kerak menga", Kengesboy Karimovning "Masofalar", Baxtiyor Genjamurodning "Yurakning o'tli osmoni", Sog'inbo'y Ibromovning "Yo'l o'rtasi", yosh ijodkorlarning "Birinci kitobim" loyihasi asosida Sarvinoz Musatdinovning "Karvon yo'llari", Allayar Dermenovning "Oy do'st" she'riy to'plamlari o'zbek tilida nashr etildi.

maskani va tomshogahoga aylantirilgan sohili bo'yab qator qo'yilgan yog'och so'rilarda o'tirgan piru badavlat otaxon va onaxonlar el-yurt tinchligini tilab duo qildi, kelinchaklar



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-446.
30646 nusxada bostildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Jonibek Aljonov
Musahhib: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilibiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy